

Toshkent shahar statistika boshqarmasi



2018 yilning yanvar – oktyabr oylarida QURILISH ISHLARI

Joriy yilning yanvar-oktyabr oylarida Toshkent shahrida jami 7 133,3 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilgan bo'lib, o'sish surati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,7 %ni tashkil etdi.

Jami qurilish ishlari hajmidan yirik pudrat tashkilotlari tomonidan 1 921,9 mlrd.so'm qurilish ishlari bajarilib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 26,9% hamda o'tgan yilning mos davriga

nisbatan 104,9 %ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va tashkilotlar, mikrofirmalar hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 53,6 %i yoki 3 826,5 mlrd.so'm to'g'ri keldi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 126,8 %ni tashkil etdi, norasmiy sektor hissasiga esa 19,5 % yoki 1384,9 mlrd.so'm to'g'ri keldi hamda o'tgan yilning mos davriga nisbatan 88,8 %ni tashkil etdi.

Raqamlar:

Qurilish ishlari hajmi -

7133,3 mlrd.so'm

Yirik pudrat tashkilotlari ulushi -

26,9 %

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi -

53,6 %

Norasmiy sektor ulushi -

19,5 %

Yirik pudrat tashkilotlari

- hajmi - **1 921,9 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **104,9 %**

Kichik tashkilotlar va mikrofirmalar

- hajmi - **3 826,5 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **126,8 %**

Norasmiy sektor

- hajmi - **1384,9 mlrd.so'm**
- o'sish surati - **88,8 %**


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish loyihalarini ishlab chiqish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan binolar qurish hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolarni qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi. Ularning ulushi jami qurilish ishlari hajmida 60,4 %ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davridagi

ko'rsatkichga nisbatan 1,0 % punktga ko'paydi.


Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari hajmi joriy davrda 19,9 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,7 % punktga kamaydi.

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari hissasiga esa 19,7 % to'g'ri kelib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,3 % punktga kamaydi.


Yanvar - oktyabr oylarida faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlari



Yanvar-oktabr oylarida qurilish ishlarining faoliyat turlari bo'yicha tarkibi




- Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Fuqarolik qurilishi ob'ektlarini qurish bo'yicha qurilish ishlari
- Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari



Binolar va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi ulushi 18,0 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 1,4 %

punktga kamaydi. Bunda kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 49,9 % (17,5 % punktga ko'payish) va norasmiy sektorning ulushi 32,1 %ni (16,2 % punktga kamayish) tashkil etdi.

2018 yil yanvar-oktyabrda faoliyat turlari bo'yicha tarkibi (jamiga nisbatan %da)




Fuqarolik qurilishi obyektlarini qurish ishlari bo'yicha yirik pudrat tashkilotlarining ulushi 65,8 %ni tashkil etdi va o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,0 % punktga kamaydi. Shuningdek, kichik tashkilotlar va mikrofirmalar ulushi 34,2 %ni tashkil etib, o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 8,0 % punktga ko'paydi.



Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,1 % punktga kamaydi va 15,0 %ni tashkil etdi. Qolgan 85,0 %i kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib o'tgan yildagi ko'rsatkichga nisbatan 3,1 % punktga ko'paydi.



Qurilish ishlarini bajaruvchi subyektlar bo'yicha qurilish ishlari




Joriy davrda jami qurilish ishlarining katta qismi kichik tashkilotlar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri keldi. Ular tomonidan bajarilgan qurilish

ishlari jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 53,6% tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,8% punktga ko'paydi.


Yirik qurilish pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, jami qurilish ishlaridagi ulushi 26,9 % ni tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 0,9 % punktga kamaydi.

Norasmiy sektor hissasiga jami qurilish ishlarining 19,4 %i to'g'ri kelib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 7,0 % punktga kamaydi.



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining tumanlar bo'yicha tarkibida Mirobod tumani yetakchilik qilmoqda. Ushbu hududda bajarilgan qurilish ishlarining 44,8 %i yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan.


Tumanlarda qurilish ishlarining o'sish suratlari (o'tgan yilning mos davriga nisbatan %da)



Yirik pudrat tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining eng kam ulushi

Yakkasaroy tumanida kuzatildi 2,6%. Bu hududdagi qurilish ishlarining asosiy qismi kichik korxonalar hissasiga to'g'ri keladi – hududdagi jami qurilish ishlarining 97,4 %i.

Tumanlar kesimida qurilish ishlari (mlrd. so`m)





Qurilish ishlarining hududlar

- Yangi biznes aeroportining qurilishi;
- Chilonzor tumanida - milliy bog'ni rekonstruksiya qilish;
- Sergeli tumani ko'p qavatli arzonlashtirilgan uy-joylarni

kesimida eng yuqori o'sish surati Shayxontoxur tumanida kuzatildi.

Katta hajmda amalga oshirilayotgan qurilish ishlariga quyidagilarni keltirish mumkin:

- "Tashkent City" majmuasining qurilishi ;
- Shaharda ko'priklar va temir yo'l halqasining qurilishi, qurilishi;
- Chilonzor tumanida "Humo" sport saroyining qurilishi.



**Toshkent shahar statistika boshqarmasi
Investitsiya va qurilish statistikasi
bo'limi**

Nashr uchun mas'ul:
Aloqa telefoni:

**B. Shoimqulov
(0371) 230-88-18**